

QO'QON XONLIGINI ROSSIYA IMPERYASI TOMONIDAN BOSIB OLINISHI

No'monov Kamronbek Kozimjon o'g'li

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali talabasi

kamronbeknomonov76@gmail.com, +998 91 054 14 06

ЗАВОЕВАНИЕ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИЕЙ

Нумонов Камронбек Козимжонович

Студент Наманганского филиала Ташкентского Международного

Университета Кимё

Email: kamronbeknomonov76@gmail.com,

+998 91 054 14 06

CONQUEST OF THE KOKAND KHANATE BY THE RUSSIAN EMPIRE

No'monov Kamronbek Kozimjon o'g'li

Student of the Tashkent Kimyo International

University of Namangan Branch

kamronbeknomonov76@gmail.com, +998 91 054 14 06

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo'qon xonligining XIX asrda Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi jarayoni tarixiy manbalar asosida o'rganildi. Asosiy e'tibor xonlikdagi ichki siyosiy beqarorlik, xalq noroziligi, harbiy jihatdan zaiflik kabi omillarning bosqinchilikni osonlashtirishdagi rolga qaratildi. Tadqiqot davomida Rossiya imperiyasining strategik harakatlari, diplomatik vositalar va kuch ishlatish orqali xonlikni bosib olgani yoritildi. Shuningdek, istilo natijasida Farg'ona vodiysida tashkil etilgan mustamlaka boshqaruv tizimining xususiyatlari va xalq hayotiga ta'siri tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Qo'qon xonligi, Rossiya imperiyasi, istilochilik, Po'latxon qo'zg'oloni, Farg'ona vodiysi, Xudoyorxon, Skobelev.

Abstract: В данной статье рассматривается процесс захвата Кокандского ханства Российской империей в XIX веке. Особое внимание уделяется внутренней политической нестабильности ханства, недовольству населения и военной слабости, которые способствовали колонизации. Также анализируются стратегические действия Российской империи, включая применение дипломатии

и силы. Освещены последствия колонизации, включая создание колониальной администрации в Ферганской долине и её влияние на жизнь местного населения.

Ключевые слова: Кокандское ханство, Российская империя, колониализм, восстание Полатхана, Ферганская долина, Худоярхан, Скобелев.

Аннотация: This article examines the conquest of the Kokand Khanate by the Russian Empire in the 19th century. It focuses on the internal political instability of the khanate, popular discontent, and military weakness, all of which facilitated colonization. The study also analyzes the strategic steps of the Russian Empire, including the use of diplomacy and military force. Furthermore, the paper highlights the consequences of the occupation, particularly the establishment of a colonial administration in the Ferghana Valley and its impact on the local population.

Keywords: Kokand Khanate, Russian Empire, colonization, Polat Khan uprising, Ferghana Valley, Khudoyorkhan, Skobelev.

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmi O'rta Osiyo tarixida tub burilishlarga sabab bo'lgan davrlardan biri bo'lib, bu jarayonlar jumlasiga Rossiya imperiyasining mintaqani bosib olish harakatlari kiradi. Ayniqsa, Qo'qon xonligining bosib olinishi bu davr tarixining eng murakkab, fojeali va o'ziga xos sahifalaridan biri hisoblanadi. Qo'qon xonligi o'zining tarixiy taraqqiyotida muayyan darajada siyosiy, harbiy va iqtisodiy kuchga ega bo'lgan davlat bo'lishiga qaramay, XIX asrga kelib kuchli ichki siyosiy nizolar, iqtisodiy tanglik va tashqi siyosiy beqarorlik tufayli zaiflashgan edi. Rossiya imperiyasi aynan mana shu zaiflikdan foydalanib, harbiy yo'l bilan xonlikni o'z tasarrufiga o'tkazishga kirishdi. Bosqinchilik harakatlarining boshlanishi avval iqtisodiy vositalar orqali ta'sir ko'rsatish shaklida namoyon bo'lsa, keyinchalik to'liq harbiy bosqin va xonlikni butunlay tugatish bilan yakunlandi.

Rossiya imperiyasining harbiy yurishlari XIX asrning 50-yillaridan boshlab kuchaygan bo'lib, bu yurishlar asosan Turkiston va Farg'ona vodiysi hududlariga qaratilgan edi. 1868-yilda general K. P. Kaufman Qo'qon xoni bilan shartnoma tuzib, Rossiya savdogarlariga keng iqtisodiy imkoniyatlar berilishini ta'minladi. Bu shartnoma bir qarashda iqtisodiy hamkorlik bo'lib ko'ringan bo'lsa-da, aslida Rossiya imperiyasining xonlik ichki ishlariga bevosita aralashuvi uchun qulay poydevor yaratdi. Xonlikning iqtisodiy tanazzuli, davlat daromadlarining keskin kamayishi, urushlar natijasida yuzaga kelgan zararlar asosan oddiy xalqqa yuklanib, soliqlar va majburiyatlarning ortib borishiga olib keldi. Bu esa xalq orasida norozilik kayfiyatlarini kuchaytirdi va oxir-oqibat ommaviy qo'zg'olonlar boshlanishiga sabab bo'ldi. 1875-yilda yuz bergan Po'latxon boshchiligidagi yirik qo'zg'olon aynan xalq noroziligining to'liq ifodasi sifatida tarixga kirdi. Qo'zg'olonlar nafaqat siyosiy

beqarorlikni yanada chuqurlashtirdi, balki Rossiyaning xonlikka qarshi harbiy harakatlarini kuchaytirishga bahona bo'ldi.

Ichki siyosiy beqarorlik xonlik ichkarisida jiddiy inqirozga sabab bo'ldi. Xon Xudoyorxon o'zining adolatsiz siyosati, xalq ehtiyojlaridan yiroq yuritilgan islohotlari va o'z manfaatlarini ustun qo'ygan siyosiy yo'li bilan nafaqat ommaning, balki o'z yaqinlarining ham noroziligiga sabab bo'ldi. Po'latxon boshchiligidagi qo'zg'olon avjiga chiqqanida, Xudoyorxon o'z qo'shinlarining bir qismini yuborib uni bostirishga harakat qildi. Biroq yuborilgan qo'mondonlar, jumladan, Abdurahmon Oftobachi hamda Iso Avliyolar qo'zg'olonchilarga o'tib ketdi. Xudoyorxonning o'g'li Nasriddinbek ham xalq tarafini oldi. Bu esa Xudoyorxonni siyosiy maydondan chekinishga majbur qildi va u general K. P. Kaufmandan yordam so'rab, Toshkentga qochib ketdi. Rossiyaliklar esa bu vaziyatdan mohirona foydalanib, xonlik ichkarisida kuchaygan qarama-qarshiliklardan o'z manfaatlarini yo'lida foydalandi. Xudoyorxonning chetga chiqib ketishi, taxt uchun kurashlar va bir necha tomonlama siyosiy mojaro Rossiya harbiylarining to'liq intervensiyasiga yo'l ochdi. Nasriddinbekning shartnoma imzolab, o'zini imperatorning "sodiq quli" deb e'lon qilishi bilan xonlik deyarli mustaqillikdan mahrum bo'ldi. Shunday qilib, bu davrda Qo'qon xonligi ichkarisida kechayotgan siyosiy inqiroz, ichki nizolar, xonlar o'rtasidagi raqobat va xalq bilan hukumat o'rtasidagi ziddiyatlar Rossiya imperiyasining istilochilik siyosati uchun qulay sharoit yaratdi. Bu holat tarixda mustamlakachilik siyosatining qanday qilib ichki muammolardan foydalangan holda amalga oshirilishini ochiq namoyon qiladi. Maqolaning keyingi bo'limlarida aynan ushbu siyosiy beqarorlik qanday oqibatlariga olib kelgani, harbiy yurishlar tafsilotlari va ularning tarixiy-madaniy oqibatlari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qo'qon xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi masalasi o'zbek va xorijiy tarixshunoslikda alohida o'rganilgan muhim mavzulardan biridir. Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida ushbu mavzuga doir manbalar ikki asosiy guruhga ajratiladi: birinchisi – XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yozilgan rus harbiy va siyosiy arboblarning esdaliklari, ma'lumotnomalari; ikkinchisi – mustaqillik davrida O'zbekiston va xorijiy olimlar tomonidan yozilgan tarixiy, siyosiy va madaniy tahlillardir. Shu nuqtai nazardan olganda, Qo'qon xonligining bosib olinishi masalasi bir tomonlama emas, balki ko'p qirrali yondashuvlar asosida yoritilgan.

Masalan, rus tarixchisi va harbiy sarkarda K. P. Kaufmanning harbiy yurishlar haqidagi ma'lumotlari Qo'qon xonligi ichki siyosiy beqarorlikni istiloga asosiy sabab sifatida ko'rsatadi [1]. Kaufman o'z esdaliklarida mahalliy aholining orqada qolganligini, xonlikda harbiy intizomning sustligini, xalq orasida norozilik kayfiyati kuchayganini ta'kidlab o'tgan. Bu qarash, tabiiyki, Rossiyaning istilochilik siyosatini oqlovchi pozitsiyada turganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, general M. D. Skobelevning

yozgan eslatmalarida ham bosib olishni oqlovchi va Rossiya manfaatlarini birlamchi qiluvchi fikrlar mavjud [2]. Uning yozishicha, Qo‘qon xonligi xalqi “tinch va farovonlik” istagida bo‘lgan va Rossiya himoyasi ostida yashashni ma’qul ko‘rgan. Bu kabi bayonotlar harbiy bosqinning siyosiy oqlanishi uchun xizmat qilgan.

Biroq mustaqillikdan keyingi yillarda yozilgan tadqiqotlar bu masalaga tubdan boshqacha yondashadi. Jumladan, tarixchi Olimov N. o‘zining "O‘zbekistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi" nomli ishida Rossiya imperiyasining siyosiy va iqtisodiy manfaatlari, ayniqsa, Markaziy Osiyodagi strategik pozitsiyani qo‘lga kiritish istagi asosiy harakatlantiruvchi kuch bo‘lganini ko‘rsatadi [3]. Olimovning fikricha, Rossiya imperiyasi Farg‘ona vodiysi orqali Hindistonga yo‘l ochishni mo‘ljallagan va bu maqsad mustamlakachilikning chuqur siyosiy strategiyasi bo‘lgan. Tarixchi G‘. Karimov esa “Qo‘qon xonligi: ichki ziddiyatlar va Rossiya bosqini” nomli tadqiqotida ichki siyosiy nizolarni asosiy sabab sifatida emas, balki Rossiya harbiy harakatlarini osonlashtiruvchi omil sifatida ko‘rsatadi [4]. Uning ta’kidlashicha, xonlikdagi ichki mojarolar, xususan, Xudoyorxonning zulm siyosati, soliq yukining oshishi, xalqning noroziligi va Po‘latxon boshchiligidagi qo‘zg‘olon bosqin uchun qulay shart-sharoit yaratgan.

Metodologik jihatdan ushbu tadqiqot tarixiy-deskriptiv yondashuvga asoslangan bo‘lib, birlamchi arxiv manbalari, xotiralar, shartnomalar matni, tarixiy xaritalar va ilmiy maqolalar asosida tahlil qilinadi. Xususan, Kaufman va Skobelev tomonidan yozilgan ruscha manbalar voqealarning harbiy-siyosiy tafsilotlarini yoritishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq bu manbalar mustamlakachilik pozitsiyasida turgani uchun, ularga tanqidiy yondashuv zarur. Shu sababli ularni zamonaviy tarixchilarning, xususan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti tadqiqotchilari tomonidan yozilgan ilmiy ishlari bilan solishtirib o‘rganish metodik asos sifatida tanlandi [5]. Bu esa tarixiy voqealarning bir tomonlama emas, balki ko‘p qirrali talqinini ta’minlaydi.

Tahlil davomida sifatli tadqiqot metodi asosiy metod sifatida tanlandi. Ya’ni, mavjud tarixiy voqealar va shaxslar faoliyati kontekstida kontekstual tahlil, matnlararo solishtirish, tarixiy voqealar ketma-ketligini tiklash hamda sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash orqali ilmiy xulosa chiqarish maqsad qilingan. Qo‘qon xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi jarayonida faqatgina harbiy kuch emas, balki siyosiy manipulyatsiya, iqtisodiy bosim, diplomatik shartnomalar orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilgan mexanizm sifatida ko‘riladi. Shu nuqtai nazardan, tarixiy manbalarni turli metodik yondashuvlar bilan tahlil qilish ushbu tadqiqotning asosiy tayanch nuqtalaridan biridir.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Qo‘qon xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi tarixiy, siyosiy, harbiy va madaniy jihatdan ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, bu holat nafaqat Farg‘ona vodiysi, balki butun O‘rta Osiyo tarixini o‘zgartirib yuborgan hodisa sifatida

e'tirof etiladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Qo'qon xonligi XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib ancha zaiflashgan, ichki siyosiy beqarorlik kuchaygan, soliq va majburiyatlar haddan ziyod oshgan, xalq noroziligi esa avj olgan edi. Ayniqsa, Xudoyorxon hukmronligi davrida moliyaviy siyosatdagi noto'g'ri qarorlar, yuqori darajadagi zo'ravonlik va o'z manfaatini xalqdan ustun qo'ygan siyosat natijasida aholining katta qismi xonlik siyosatiga nisbatan ochiq norozilik bildira boshlagan. Bu holat mustamlakachi Rossiya imperiyasi uchun qulay sharoit yaratdi. Uzoq yillik harbiy va siyosiy tayyorgarliklardan so'ng Rossiya imperiyasi Farg'ona vodiysi tomon yurishni boshladi va 1868-yilda K.P. Kaufman tomonidan tuzilgan shartnoma orqali xonlikka savdogarlar, diplomatlar va harbiylar orqali ta'sir o'tkazishga muvaffaq bo'ldi. Bu shartnomalar rasmiy ravishda asosan savdo va iqtisodiy munosabatlarni o'rnatish sifatida talqin etilgan bo'lsa-da, aslida xonlik suverenitetining asta-sekin yemirilishiga zamin yaratdi.

Shartnoma ortidan yuzaga kelgan iqtisodiy muammolar, soliq yukining ortishi, hukmdorlar o'rtasidagi nizolar va xalqning ochiq noroziligi bosqinchilik yurishlarining asosiy ichki sabablari sifatida yuzaga chiqdi. Xudoyorxonning o'z oilasi va eng yaqin amaldorlaridan ayrilishi, ularning xalq tomoniga o'tib ketishi, xonlik boshqaruvidagi zaiflik darajasining qanchalik chuqur ekanligini ko'rsatadi. Nasriddinbekning taxtga o'tishi, Po'latxonning siyosiy maydonga chiqishi, Andijon, Namangan, Chust kabi yirik shaharlarda qo'zg'olonlarning keng quloch yozishi xalq ommasi orasida mustaqillik va ijtimoiy adolat istagining kuchli bo'lganini anglatadi. Po'latxon harakati oddiy xalq tomonidan chin dildan qo'llab-quvvatlangani tarixiy manbalar orqali ham tasdiqlanadi. Biroq, bu harakatlar yaxshi tashkil etilmagan, harbiy jihatdan zaif va markaziy boshqaruvsiz bo'lgani sababli Rossiya imperiyasi tomonidan osongina tor-mor qilindi.

Tahlil davomida aniqlandi: Rossiya imperiyasi bosib olish harakatlarini harbiy kuch bilan birga diplomatik va psixologik uslublar yordamida olib borgan. Jumladan, dushmanni bo'lib tashlash, xonlik ichidagi raqib guruhlar bilan yashirin ittifoqlar tuzish, ayrim amaldorlarni pora bilan sotib olish kabi usullar qo'llangan. Bu yo'l bilan imperiya xonlikdagi ixtiloflarni chuqurlashtirib, ichkaridan yemirishga erishgan. Shuningdek, tarixiy hujjatlarda Rossiya qo'shinlari tomonidan aholining ko'chmas mulklari, dalalari, hovlilari va imoratlari ommaviy ravishda yo'q qilingani, bombardimonlar natijasida butun qishloq va shaharlar yondirib yuborilgani, dinga va madaniyatga zid harakatlar amalga oshirilgani aniq qayd etilgan. Ayniqsa, Andijon jangida aholining to'rt kun davomida artilleriyadan tinimsiz o'qqa tutilgani, keyin esa shahar ustidan tutun va olov bilan kirilganligi bu istilochilikning zo'ravonlik darajasini ko'rsatadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, Rossiya imperiyasi Qo'qon xonligini bosib olgach, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tuzilmani butunlay o'zgartirib yubordi.

Avvalgi boshqaruv tizimi, ya'ni sulolaviy, mahalliy an'anaviy hukmronlik tamoyillari bekor qilinib, uning o'rniga harbiy gubernator boshchiligidagi rus ma'muriy tizimi joriy etildi. Bu tizim mahalliy aholining qadimiy urf-odatlariga zid bo'lib, ko'plab noroziliklarga sabab bo'ldi. Ammo imperiya hukumatining o'zining harbiy kuchiga va markazlashtirilgan boshqaruv modeliga tayanishi natijasida bu noroziliklar bostirildi va imperiyaviy ma'muriyatning markaziy nazorati mustahkamlandi. Shu tariqa Qo'qon xonligi davlat sifatida tarix sahnasidan butunlay chiqarildi va uning o'rnida Farg'ona viloyati tashkil etildi. Mazkur viloyat Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritilib, general Skobelev boshchiligidagi harbiy gubernatorlik orqali boshqarila boshlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qo'qon xonligi boshqa O'rta Osiyo davlatlaridan farqli ravishda to'liq tugatilib, uning suvereniteti batamom yo'qotildi. Buxoro amirligi va Xiva xonliklari Rossiyaning protektoratiga aylantirilgan bo'lsa-da, ularda mahalliy hukmdorlar nominal bo'lsa-da saqlanib qoldi. Qo'qon xonligi esa bunday maqomga ega bo'lmadi. Bu farqning asosiy sababi, ehtimol, Farg'ona vodiysining geografik va strategik ahamiyati, savdo yo'llaridagi joylashuvi, agrar resurslarga boyligi hamda aholining ko'pligida bo'lsa kerak. Rossiya bu mintaqani bevosita boshqarishga intilgan. Shu sababli xonlikka nisbatan boshqa siyosat yuritilgan.

Umuman olganda, tahlillar natijasida xulosa qilish mumkinki, Qo'qon xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi tasodifiy hodisa bo'lmay, balki oldindan rejalashtirilgan, puxta o'ylangan, siyosiy va harbiy bosqichma-bosqich amalga oshirilgan istilochilik strategiyasining natijasi bo'lgan. Xonlik ichidagi ichki ziddiyatlar, ijtimoiy tengsizlik, siyosiy boshboshdoqlik, hukmdorlarning xalq bilan bog'lanmaganligi, tashqi siyosatda uzoqni ko'zlamaslik bu istilochilikni yengillashtirgan omillar bo'lib xizmat qilgan. Tarixiy haqiqat shundan iboratki, bu mag'lubiyat nafaqat bir davlatning tugatilishiga, balki xalqning siyosiy erkinligini yo'qotishiga, uning o'z taqdirini belgilash huquqidan mahrum bo'lishiga olib kelgan.

XULOSA

Qo'qon xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo tarixidagi eng muhim siyosiy burilishlardan biri bo'ldi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xonlik ichida yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik, ichki nizolar, hukmdorlar o'rtasidagi ziddiyatlar va xalqning hukumatdan noroziligi Rossiya imperiyasi uchun qulay imkoniyat yaratdi. Ayniqsa, Xudoyorxon va undan keyingi hukmdorlar davrida yuritilgan adolatsiz siyosat, soliq va majburiyatlarning haddan ortishi, xalq bilan hukmdor o'rtasidagi aloqa uzilishi xonlikni zaiflashtirdi. Bu holatni chuqur tushungan Rossiya imperiyasi bosqichma-bosqich harbiy yurishlar bilan xonlikni ichidan yemirdi, iqtisodiy va siyosiy jihatdan bog'liq qilib qo'ydi va oxir-oqibatda uni butunlay bosib oldi.

Qo‘qon xonligi mag‘lubiyati faqat harbiy qudratsizlik yoki texnik ustunlik bilan izohlanmaydi, balki ichki birdamlikning yetishmasligi, xonliklar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchsizlik, milliy manfaatlar ustuvorligining yo‘qligi, mustaqillik uchun yetarli siyosiy tafakkurning shakllanmaganligi bilan bog‘liqdir. Rossiya esa bu zaifliklardan ustalik bilan foydalandi. Natijada Qo‘qon xonligi tugatilib, uning o‘rnida mustamlaka boshqaruvi ostidagi Farg‘ona viloyati tashkil qilindi. Bu tarixiy jarayon xalq hayot tarzining, boshqaruv tizimining, madaniy qadriyatlarining butunlay o‘zgarishiga olib keldi. Shunday qilib, Qo‘qon xonligining yo‘qolishi – nafaqat davlat tuzilmasining, balki xalqning siyosiy mustaqilligining ham yakun topgan nuqtasi bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kaufman, K. P. (1870). Ocherki Turkestanskogo kraya.
2. Skobelev, M. D. (1882). Voyennie zapiski.
3. Olimov, N. (2005). O‘zbekistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Toshkent: O‘zbekiston Tarixi nashriyoti.
4. Karimov, G. (2011). Qo‘qon xonligi: ichki ziddiyatlar va Rossiya bosqini. Samarqand: Ilm ziyo.
5. O‘zbekiston Respublikasi FA Tarix instituti (2020). O‘zbekistonning mustamlakachilik davri tarixi. Toshkent.
6. Abashin, S. (2014). The ‘fierce fight’ at Oshoba: a microhistory of the conquest of the Khoqand Khanate. Central Asian Survey, 33(2), 217–234.
7. Howorth, H. H. (1880). History of the Mongols: From the 9th to the 19th Century. Part II: The So Called Tartars of Russia and Central Asia. London: Longman.
8. Levi, S. C. (2017). The Rise and Fall of Khoqand, 1709–1876: Central Asia in the Global Age. Pittsburgh: University of Pittsburgh Press.
9. Morrison, A. (2021). The Russian Conquest of Central Asia: A Study in Imperial Expansion, 1814–1914. Cambridge: Cambridge University Press.
10. Mukhamedov, A. (2005). Imperiyalar to‘qnashuvi: XIX asrda Rossiya va Buyuk Britaniyaning Markaziy Osiyo uchun kurashi. Toshkent: Universitet nashriyoti.
11. Karimov, I. A. (1998). Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Toshkent: O‘zbekiston.
12. Yusupov, B. (2018). Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi siyosati. Toshkent: Ijtimoiy fanlar akademiyasi nashriyoti.